"ADOLAT"
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

"HUQUQ va BURCH+" —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=328

2025-yil
3-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Xalqaro texnologiyalar transferi va intellektual mulkni muhofaza qilish masalalari

Hilola Sharipova,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro xususiy huquq kafedrasi dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD
e-mail: h.sharipova@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada xalqaro texnologiyalar transferi va intellektual mulkni muhofaza qilish masalalari yoritilgan. Texnologiyalar transferi jarayonida intellektual mulk huquqlarini huquqiy himoya qilishning dolzarb jihatlari, xalqaro shartnomalar, qonunchilik va huquqiy mexanizmlar tahlil qilingan. Shuningdek, intellektual mulkni himoya qilish global iqtisodiy hamkorlik va innovatsion rivojlanishda tutgan o'rni asoslab berilgan.

Калит сўзлар. texnologiyalar transferi, intellektual mulk, huquqiy himoya, xalqaro hamkorlik, innovatsiya

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы международного трансфера технологий и защиты прав интеллектуальной собственности. Проанализированы правовые аспекты защиты интеллектуальных прав в процессе трансфера технологий, международные соглашения и законодательные механизмы. Отмечена ключевая роль охраны интеллектуальной собственности в развитии инноваций и международного экономического сотрудничества.

Ключевые слова. трансфер технологий, интеллектуальная собственность, правовая защита, международное сотрудничество, инновации

Annotation. This article addresses the issues of international technology transfer and the protection of intellectual property rights. It analyzes the legal aspects of IP protection in the technology transfer process, relevant international agreements, and legal mechanisms. The article emphasizes the key role of intellectual property protection in fostering innovation and international economic cooperation.

Keywords. technology transfer, intellectual property, legal protection, international cooperation, innovation

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Oxirgi yillarda intellektual mulkning xalqaro bozori shakllanib, bunda intellektual mulk obyektlaridan foydalanishga bo‘lgan huquqlar xalqaro miqyosda o‘tkazilishi kengayib bormoqda.

“Huquqlarni o‘tkazish jarayoni xizmatlar ko‘rsatish sohasiga taalluqli bo‘lib, shuning uchun intellektual mulk bozori faoliyat turlari bo‘yicha turlicha bo‘lgan jahon xizmatlar bozori tarkibiga kiradi va uning asosiy tamoyillariga mos rivojlanib boradi. An'anaviy mahsulotlar bozoriga taqqoslanganda intellektual mulk jahon bozori sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning murakkab tizimini ifodalaydi. Ammo bu bozorda biz mulkiy mahsulotlar bilan emas, balki ilmiy-texnik yutuqlardan foydalanishga bo‘lgan huquqlarning yon berilishi bilan ish ko‘ramiz”[1].

Texnologiyalar transferining eng muhim elementi bo‘lib texnologiyalardan, jumladan intellektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqlarining muhofazasi hisoblanadi, sababi yangi texnologiya uning texnik noyobligi va bozorda talabga egaligi sharti bilan, undan foydalanishga bo‘lgan alohida huquqlar tasdiqlangan bo‘lsa hamda texnologiya nou-xaudan iborat bo‘lsa tijorat qiymatiga ega bo‘ladi va huquqiy muhofaza obyekti sifatida qaraladi[2].

Ta'kidlash joizki, qonun hujjatlariga va xalqar shartnomalarga muvofiq intellektual mulk obyektlariga (1) adabiy, badiiy va ilmiy ishlar; (2) ijro faoliyati, ovoz yozish, radioeshittirish va teleko‘rsatuvlar (3) inson faoliyatining hamma sohalaridagi ixtirolar (4) ilmiy kashfiyotlar (5) sanoat namunalari, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari, firma nomlanishlari; (6) nosog‘lom raqobatdan himoya kabilar kirishi tan olinadi [3].

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining IV-bo‘limi intellektual mulkka bag‘ishlangan bo‘lib, 1031-moddada intellektual mulk obyektlari ko‘rsatilgan va ularning tarkibiga fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar kirishi ko‘rsatilib, unda firma nomlari, tovar belgilari va tovarlar chiqarilgan joy nomlari ko‘rsatilgan[4].

I. Zokirovning ko‘rsatishicha, intellektual mulk fuqarolik huquqiy munosabatlarida o‘ziga xos obyekt sifatida qaraladi[5:157]. Shu o‘rinda X.Raxmonqulovning ko‘rsatishicha, ijodiy faoliyatning aniq bir shaklda, ko‘rinishda ifoda etiladigan natijalari intellektual mulk hisoblanadi va huquq bilan himoya qilinadi. Bu natijalarga tenglashtirilgan jismoniy yoki yuridik shaxs mahsulotlari, vositalari ham intellektual mulk sifatida tan olinadi. Ushbu natijalarga nisbatan fuqaroning yoki yuridik shaxsning mutlaq, ya'ni alohida va faqat o‘ziga tegishli huquqlari e'tirof etiladi[6:383]. Intellektual mulk fuqarolik huquqining alohida mustaqil instituti bo‘lib, ijodiy faoliyat natijalari va ularga tenglashtirilgan obyektlar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig‘indisidan iborat[7:25]. Shu o‘rinda O.Oqyulov intellektual faoliyat natijalariga nisbatan mutlaq huquqlar deb atalmish maxsus huquqiy

mexanizm amal qilishini alohida ta'kidlaydi[8:27].

Intellektual mulk huquqlari innovatsion faoliyat va undan foydalanishga bo‘lgan alohida huquqlar bilan uzluksiz bog‘langan bo‘lib, texnologiyalar transferi yuridik jihatdan odatda texnologiyadan – intellektual mulkdan foydalanishga bo‘lgan huquq – litsenziyaning sotilishini ifodalaydi.

Intellektual mulk huquqi nuqtayi nazaridan texnologiya transferi (o‘tkazilishi) davomida yuzaga keladigan asosiy huquqiy munosabatlar quyidagi asosiy tavsiflarni o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, o‘tkazilayotgan texnologiya tarkibiga kiruvchi huquq obyektlari obyektiv aniqlashtirilishi va ularning mavjudligi isbotlana oladigan bo‘lishi lozim. Intellektual faoliyat natijalarining yig‘indisi sifatida yagona texnologiyani obyektivlashtirish shakllari amaldagi qonunchilik tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilanmagan. O. Gorodov fikriga ko‘ra, “yagona texnologiyani obyektivlashtirish, qonun hujjatlarida aniq belgilanmagan bo‘lsa ham, o‘ziga xos ifoda shakllariga ega intellektual faoliyatning turli natijalari sifatida uning tarkibiga kiruvchi elementlar obyektivlashtirilishini nazarda tutadi”[9].

Ikkinchidan, o‘tkazilayotgan texnologiya tarkibiga amaldagi qonunchilik tomonidan muhofaza qilinuvchi intellektual faoliyat natijalari yoki individuallashtirish vositalari toifasiga taalluqli obyektlar kirishi lozim. Yagona texnologiyaning mazkur majburiy elementlaridan tashqari uning tarkibiga ixtiyoriy elementlar sifatida intellektual faoliyatning huquqiy muhofaza qilinishi shart bo‘lmagan natijalari, shu jumladan texnik ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlar kirishi mumkin.

Aralash shartnomalar doirasida intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan alohida huquqlarni o‘tkazishdan tashqari, uskunalarga bo‘lgan mulkiy huquqlar, ma'lumot tashuvchilar va boshqa mulk ham o‘tkazilishi mumkin, shuningdek ma'lum bog‘liqlikdagi ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish ham nazarda tutilishi mumkin.

Uchinchidan, o‘tkazilayotgan obyektlar aylanma fuqarolik muomalasiga kiritilgan bo‘lishi, fuqarolik muomalasi obyekti bo‘la olmaydigan obyektlar transfer (o‘tkazish) predmeti bo‘lishi mumkin emas.

To‘rtinchidan, o‘tkazilayotgan texnologiya muayyan amaliy faoliyatning texnologik asosi bo‘lib, real xizmat qilish xususiyatiga ega bo‘lishi lozim. Shu bilan bir qatorda, fuqarolik muomalasidan chiqarilgan yoki cheklangan ayrim obyektlar ham texnologiya transferi sifatida qaralishi mumkin. Masalan, harbiy ahamiyatdagi texnologiyalar transferi bunga misol qilib keltirilishi mumkin.

Fuqarolik huquqlarini amalga oshirishda ularning himoyalanganlik holati, ya'ni qonun hujjatlarida ushbu huquqlarni to‘sqinliksiz amalga oshirilishini ta'minlovchi hamda ushbu huquqlarning cheklanishini istisno etuvchi qoidalarning belgilanish darajasi muhim o‘rin tutadi. Umumiy qoidaga ko‘ra, “fuqarolik huquqlarini himoya qilish deganda, mazkur huquqlarning normal

amalga oshirilishini ta'minlovchi choralar yig‘indisi tushuniladi” [10:120]. I. Zokirovning fikricha, “fuqarolik huquqlarini himoya qilish qonunda belgilangan doirada, ya'ni himoyaning ma'lum bir shakl, usul va vositalarini qo‘llagan xolda amalga oshiriladi” [11:107]. “Huquqni himoya qilishning huquqiy choralari jumlasiga esa, fuqarolik muomalasining normal, buzilmagan holda rivojlanishining ta'minlanishiga yordam beruvchi barcha choralar kiradi”[12:335].

Aynan ko‘rsatilgan jihatlar intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni amalga oshirishda ham ahamiyatlidir. Fuqarolik huquqi fani nazariyasida huquqning himoya qilinishi atamasi keng qo‘llanilib, bunda huquqiy himoya qilish huquq buzilganda uni tiklash va javobgarlikni belgilash bilan bog‘liq bo‘ladi[13:66].

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1040-moddasida intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarning himoya qilish usullari o‘z ifodasini topgan. Mutlaq huquqlarni himoya qilish usullari deganda bunday huquqlarni hamma tomonidan e'tirof etilishi, rioya qilinishi, bajarilishi, qo‘riqlanishi, ular buzilgan taqdirda tiklash, buzilish oqibatlarining bartaraf etilishini ta'minlovchi yuridik vositalar, choralar va yo‘llar tushuniladi. Bunday usullar doirasi, turlari, ularni amalga oshirish tartibi qonunlarda belgilab qo‘yiladi[14:107].

Intellektual mulk obyektlarini himoya qilish deganda, bu obyektlarga nisbatan subyektiv huquqlar sohibining huquqlarini qonuniy jihatdan qo‘riqlashning vujudga kelish asoslari tushuniladi. Binobarin, intellektual mulk obyektlari o‘z-o‘zidan huquqiy muhofaza ostiga olinmaydi, balki bu obyektlarga nisbatan subyektiv huquqlarga ega bo‘lgan shaxslar qonuniy manfaatlari huquqiy jihatdan muhofaza qilinadi[15:70-71].

O. Oqyulovning ko‘rsatishicha, “mutlaq huquqlar o‘z mazmuni va xarakteriga ko‘ra fuqarolik huquqiy hisoblanishi va, binobarin, Fuqarolik kodeksining 11-moddasida nazarda tutilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullari ularga nisbatan qo‘llanilishi mumkin”[16:107].

Hozirgi vaqtda xalqaro-huquqiy darajada xalqaro texnologiyalar transferi, xalqaro ommaviy huquqning turli (ekologik, iqtisodiy) sohalariga taaluqli bo‘lgan universal, mintaqaviy va ikki tomonlama shartnomalar qoidalarida mavjud bo‘lgan normalar bilan tartibga solinadi. Ko‘pgina shartnomalarda muayn e'tibor intellektual faoliyat natijasi hisoblangan o‘tkazilayotgan texnologiyalarga bo‘lgan intellektual mulk huquqlarining himoyasiga qaratiladi.

Texnologiyalar va intellektual mulk transferini huquqiy tartibga solishni ta'minlovchi xalqaro hujjatlar sifatida Jahon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) ni ta'sis qiluvchi konvensiya, 1994-yilgi JSTni tashkil qilish to‘g‘risidagi bitimga ilova hisoblanadigan Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo‘yicha bitim (TRIPS – Agreement on trade-related aspects of intellectual property rights), 1883-yil 20-martdagi Sanoat mulkini muhofaza qilish bo‘yicha Parij

konvensiyasi (1967-yil 14-iyulda Stokgolmda qayta koʻrilgan), 1970-yil 19-iyundagi Patent kooperatsiyasi toʻgʻrisida shartnoma (2001-yil 3-oktyabrda oʻzgartirilgan), 1994-yil 9-sentyabrdagi Yevrosiyo patent konvensiyasi, 1989-yil 28-iyundagi Belgilarni xalqaro roʻyxatdan oʻtkazish toʻgʻrisidagi Madrid bitimiga doir Bayonnoma, 1994-yil 27-oktyabrdagi Tovar belgilariga doir qonunlar toʻgʻrisidagi shartnoma, 2000-yil 1-iyundagi Patent huquqi toʻgʻrisida shartnoma, 1968 ytl 8-oktabrdagi Sanoat namunalarini xalqaro tasniflashni ta'sis etish toʻgʻrisida Lokarn bitimi, 1886-yil 9-sentyabrdagi Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish boʻyicha Bern konvensiyasi va h.k. hisoblanadi.

Mualliflik va turdosh huquqlar sohasidagi xalqaro konvensiyalar mamlakatlar oʻrtasidagi teng huquqli va adolatli munosabatlar uchun asos boʻlib hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi barcha yuqorida sanab oʻtilgan xalqaro konvensiyalar va bitimlar ishtirokchisi hisoblanadi.

Bir vaqtning oʻzida texnologiyalar xalqaro transferiga intellektual mulkka boʻlgan huquqlarning himoyasi sohasidagi xalqaro huquqqa taalluqli qoidalar yuqori ta'sir koʻrsatadi. Bunda Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari boʻyicha bitim (TRIPS) eng koʻp ta'sir koʻrsatuvchi hujjat hisoblanadi. U JST ga a'zo davlatlarda intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning eng kam kelishilgan standartlarini oʻz ichiga oladi.

Intellektual mulk obyektlari ular transfer etilishidan avval vujudga keladi, shu oʻrinda belgilangan tartibda ularga nisabatan huquqlar ham vujudga keladi, shundan soʻng ular transfer qilinadi. Shu sababli, intellektual mulk himoyasi sohasidagi islohotlar texnologiyalar oʻtkazilishining yanada rivojlanishiga va pirovardida eksport imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi[17].

A. Gutterman va J. Erlich toʻgʻri ta'kidlaganidek, intellektual mulkka boʻlgan huquqlar nafaqat texnologiyalar oʻtkazilishini huquqiy tartibga solishning ajralmas jihati, balki umuman olganda texnologik rivojlanishning, mavjud va yangi texnologiyalarning yuzaga keltirilishi, moslashtirilishi, joriy qilinishi va qoʻllanilishining muhim jihati boʻlib hisoblanadi[18:215].

Texnologiyalar transferi favqulodda keng gʻoyani ifodalab, u faqatgina intellektual mulk jihatlariga bogʻlanib qolmaydi albatta. J. Buttler va D. Gibson ta'kidlaganlaridek, “texnologiyalar transferi – tadqiqotlarning joʻshqin sohasi boʻlib, intellektual mulk huquqlarini boshqarish, bozorni oʻrganish, jamoat (davlat) va xususiy laboratoriyalar roli, universitetlar roli, tavakkalchilikni boshqarish kabi an'anaviy mavzularni oʻz ichiga oladi”[19:432]. Biroq intellektual mulk huquqlariga rioya etish va himoya qilish masalalari eng munozarali hisoblanadi, sababi, xususan, litsenziya shartnomalari eng muhim yoʻllardan biri hisoblanib, ular orqali texnologiyalar oʻtkazilishi roʻy beradi. Savdo va toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar kabi boshqa rasmiy yoʻllar orqali texnologiyalar oʻtkazilishida ham intellektual mulk huquqlari masalasi koʻtariladi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Xalqaro hamkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishi intellektual mulkni yaratishni va undan foydalanishni har taraflama huquqiy tartibga solish bilangina erishish mumkin bo‘ladi. Bular esa yuqori axborot texnologiyalar, biotexnologiyalar, robototexnika, farmatsevtika, tibbiyot, sun'iy intellekt va boshqalarga taalluqli.

Mazkur sohada xalqaro huquq normalarini belgilash va qat'iy rioya etish jahon maydonida hamkorlikning majburiy sharti bo‘lib hisoblanadi. Intellektual mulk huquqlarining rejimlari texnologiyalarning yuzaga keltirilishi, o‘tkazilishi va joriy qilinishiga[20] ta'sir o‘tkazuvchi siyosiy vositalar bo‘lgan va xalqaro norma ijodkorligining e'tibori intellektual mulk huquqlarining himoyasiga ko‘proq qaratilgan.

“Rivojlangan mamlakatlarning intellektual mulk to‘g‘risidagi qonunchiligi rivojlanishi va qo‘llanilish amaliyotining tamoyillari orasida barcha yo‘nalishlar uchun quyidagi umumiylarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) huquqiy muhofaza rejimini kuchaytirish, shu jumladan yangi qo‘llanilish sohalariga va yangi obyektlarga patent muhofazasini joriy qilish, alohida huquqlarni buzganlik uchun jazolarning kuchaytirilishi, patent muhofazasi olish uchun rasmiy tartiblarni soddalashtirish;

2) raqamli texnologiyalar va Internet ommalashuvi bilan bog‘liq muammolarning yuzaga kelishiga mos javobni izlash, shu jumladan, mualliflik huquqi sohasidagi mutlaqo yangi yondashuvlarning paydo bo‘lishi;

3) byudjet va jamoat fondlari hisobidan tadqiqotlarni amalga oshirishda olingan natijalardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni erkinlashtirish (liberallashtirish)”[21].

Eng rivojlangan mamlakatlarning davlat budjetidan moliyalashtiriladigan ilmiy-texnik faoliyat natijalariga bo‘lgan davlat huquqlarini huquqiy ta'minlash va amalga oshirish sohasidagi siyosatining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘p rivojlangan mamlakatlar davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ilmiy tadqiqotlar natijalarini tezda o‘zlashtirish, joriy etish va tijoratlashtirish orqali milliy sanoatning raqobatbardoshligini ko‘tarishga yo‘naltiradi, shuningdek bunday davlatlarda yangi texnologiyani yaratgan shaxs yoki tashkilotga obyektga bo‘lgan huquqlar taqdim qilinmoqda.

Bundan tashqari, ayrim mamlakatlarda maxsus tashkilot va agentliklar shakllantirilgan bo‘lib, ular yangi texnologiyaga bo‘lgan davlatning huquqlarini amalga oshirish bilan shug‘ullaniladi. Masalan, Buyuk Britaniyada texnologik guruh, Yaponiyada esa uni JITA[22] kabi tashkilotlar mavjud.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, intellektual mulk huquqlari sohasida global siyosatning asosiy tamoyili butun dunyoda intellektual mulk huquqlarining himoya darajasini birxillashtirish bo‘lib hisoblanadi.

Xalqaro hamkorlikning, jumladan manfaatli savdo-iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishiga mamlakatlar o‘rtasida texnologiyalar transferi jarayonining samarali amalga oshirilishi va har taraflama

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

huquqiy tartibga solinishi bilan erishish mumkin. Texnologiyalar transferi tushunchasi yagona huquqiy ta'rifga ega boʻlmay, ushbu tushunchaga mavjud yondashuvlar oʻrganilib, umumlashtirgan holda, bizningcha, texnologiyalar oʻtkazilishi yuridik bitim bilan mustahkamlangan jarayonni texnologiyalar transferi deb hisoblash mumkin.

Tahlillar natijasida xulosa qilish mumkinki, texnologiyalar transferi – bu bilimlar, texnologiyalar, axborot va texnologik tajriba (ilmiy, ilmiy-texnik va boshqa bilimlar, shu jumladan ilmiy, ilmiy-texnik faoliyat natijalari va bunday natijalarga boʻlgan huquqlar, ham mamlakatda, ham xorijda ishlab chiqilgan texnologiyalar)ning amalda qoʻllanilish sohasiga oʻtkazilishiga qaratilgan tadbirlar majmuidan iborat jarayon boʻlib, bunda texnologiyani yaratgan va undan tijoratlashtirish maqsadida foydalanadigan shaxslar oʻrtasida shartnoma tuzish orqali innovatsiyalarni yaratish va ulardan foydalanishni nazarda tutuvchi jarayon.

Bundan tashqari, xalqaro transferda texnologiyaning tushunchasiga boʻlgan turli yondashuvlarni hisobga olgan holda, u axborot koʻrinishida intellektual mahsulot (bilimlar ilmiy-texnik ma'lumot, patent, nou-xau va h.k.) sifatida va mahsulot, jarayon, uskuna, xizmat sifatida moddiylashtirilgan koʻrinishda boʻladi. Bundan kelib chiqadiki, xalqaro amaliyotda, “texnologik” deya ataluvchi “majmua” (“paket”) transferi mavjud boʻlib, uning tarkibiga egasi yuqori malakali mutaxassislar boʻlgan ilgʻor tajriba va bilimlar, intellektual qiymat obyektlari, turli ilmiy sigʻimli mahsulot va xizmatlar kirishi mumkin. Huquqiy nuqtayi nazardan texnologiyalar transferini fuqarolik, soliq, bojxona, moliya va ma'muriy huquq me'yorlarini oʻz ichiga oluvchi kompleks huquqiy institut deb tan olish mumkin.

Xulosa qilish mumkinki, texnologiyalarning oʻtkazilishi, joriy qilinishi va qoʻllanilishi orqali dunyo rivojlanishi manfaatlari intellektual mulk huquqlari himoyasi xalqaro tizimining moslashuvchanligi yoʻnalishida tadrijiy rivojlanishiga ta'sir koʻrsatishi lozim, bu orqali esa texnologiyalar xalqaro transferi tizimning tadrijiy rivojlanishi xalqaro transferi tizimining ijobiy rivojlanish istiqbollarini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Технологиялар трансфери ва интеллектуал мулк. https://studopedia.ru/3_89686_transfer-tehnologiy-i-intellektualnaya-sobstvennost.html

2. Технологиялар трансфери ва интеллектуал мулк. https://studopedia.ru/3_89686_transfer-tehnologiy-i-intellektualnaya-sobstvennost.html

3. Конвенция об учреждении Всемирной организации интеллектуальной собственности (ВОИС)

4. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси.

5. Зокиров И.Б. Фуқаролик ҳуқуқи: Дарслик. (1-қисм). –Т., 2006. –Б.157.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

6. Раҳмонқулов Ҳ.Р. Фуқаролик ҳуқуқи объектлари: Ўқув қўлланма. –Т., 2009. –Б.103; Раҳмонқулов Ҳ.Р. Фуқаролик ҳуқуқи муаммолари: Дарслик. (1-қисм). –Т., 2010. –Б.383.

7. Имомов Н., Ахмаджонов Б. Интеллектуал мулк ҳуқуқи. –Т., 2010. –Б.7; Оқюлов О. Интеллектуал мулк ҳуқуқий мақомининг назарий ва амалий муаммолари. –Т., 2004. –Б. 25.

8. Оқюлов О. Кўрсатилган асар..–Б. 27.

9. Городов О. А. Правовая охрана и использование единых технологий, созданных за счет или с привлечением бюджетных средств: монография. –М., 2010.

10. Хусусий мулк объектларининг ҳуқуқий мақоми / Масъул мухаррир Академик Ҳ.Раҳмонқулов. –Т.,2007. –Б.120.

11. Зокиров И.Б. Фуқаролик ҳуқуқи. Биринчи қисм. –Т., 2009. –Б.107.

12. Гражданское право: Учебник. Т.3 / Под ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого. Изд.6-е. –М., 2012. –С.335.

13. Имомов Н., Ахмаджонов Б. Интеллектуал мулк ҳуқуқи. –Т., 2010. –Б.66.

14. Оқюлов О. Интеллектуал мулк ҳуқуқий мақомининг назарий ва амалий муаммолари. – Т., 2004. –Б.107.

15. Ўша жойда. –Б.70–71.

16. Ўша жойда. –Б.107.

17. Maskus, Keith E. and Lei Yang. The Impacts of Post-TRIPS Patent Reforms on the Structure of Exports, mimeo. 2013.

18. Gutterman, A. and J. Erlich, 1997. Technology development and transfer. Quorum Books, Westport, Conn. –P.215.

19. Butler, J.S. and D.V. Gibson, 2011. Introduction: technology transfer in global perspectives - issues for the twenty-first century. In: Butler, J.S. and D.V. Gibson (eds.). Global perspectives on technology transfer and commercialization: building innovative ecosystems, Edward Elgar Publishing, Cheltenham. –P.432.

20. UNCTAD. Transfer of technology. Series on issues in international investment agreements. United Nations .New York and Geneva. 2001.

21. Интеллектуальная собственность: правовое обеспечение. Становление института интеллектуальной собственности в России. 2002. http://www.businesspravo.ru/Analyst/AnlShow_AnlID_24.html

22. Интеллектуальная собственность: правовое обеспечение. Становление института интеллектуальной собственности в России. 2002. http://www.businesspravo.ru/Analyst/AnlShow_AnlID_24.html